

O‘ZBEKISTONDA MOLIYAVIY HISOBOTLARNING XALQARO STANDARTLARIGA O‘TISHNING AFZALLIKLARI VA BU BORADAGI ILK ISLOHOTLAR

G'ofurova Sadoqatxon G'ayratjon qizi

Farg‘ona davlat universiteti bitiruvchisi

Annotatsiya. Maskur maqola MHXS (moliyaviy hisobotning halqaro standartlari)ni joriy etishning afzallik taraflari hamda ushbu sohadagi ilk islohatlarni ochiq lab beradi.

Kalit so‘zlar: Moliyaviy hisobot xalqaro standartlari (MHXS), iqtisodiyotning uyg‘unlashuvi, xorij investitsiyalar.

ПРЕИМУЩЕСТВА ПЕРЕХОДА НА МЕЖДУНАРОДНЫЕ СТАНДАРТЫ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ И ПЕРВЫЕ РЕФОРМЫ В ЭТОМ НАПРАВЛЕНИИ

Садокатхон Гофурова, дочь Гайратжона

Выпускница Ферганского государственного университета

Аннотация. В данной статье описаны преимущества внедрения Международных стандартов финансовой отчетности (МСФО) и первых реформ в этой области.

Ключевые слова: Международные стандарты финансовой отчетности (МСФО), гармонизация экономики, иностранные инвестиции.

ADVANTAGES OF TRANSITION TO INTERNATIONAL FINANCIAL REPORTING STANDARDS IN UZBEKISTAN AND FIRST REFORMS IN THIS DIRECTION

Sadoqatkhon Gofurova, daughter of Ghayratjon

Graduate of Fergana State University

Annotation. The article discusses the advantages of implementing IFRS (International Financial Reporting Standards) and the first reforms in this area.

Keywords: International Financial Reporting Standards (IFRS), economic harmonization, foreign investments.

KIRISH

Jahon amaliyotida buxgalteriya hisobini hamkorlik tili, biznes va ishbiarmonlik kaliti deb bejiz tan olinmagan. Buxgalteriya hisobi ma'lumotlaridan ko'pchilik manfaatdor shaxslar bo'lib, undan, xususan: investorlar va kreditorlar (tashqi foydalanuvchilar), kompaniya menejerlari (ichki foydalanuvchilar), davlat organlari xizmatchilari, raqobatchilar va boshqalar tomonidan foydalaniladi. “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari”– moliyaviy hisobotni taqdim etish, zahiralari, sug'urta shartnomalari, pul mablag'larini siljishi, hisob siyosati, hisob baholarini o'zgartirish va xatolar, muvozanat tuzilgandan keyingi hodisalar, qurilish shartnomalari, foyda solig'i, segment hisobot, asosiy vositalar, ijara, ishchilarga haqlar, davlat subsidiyalarining hisobi va davlat yordami haqida ma'lumot, valyuta kursi o'zgarishining ta'siri, biznesni birlashtirish, qarzlari bo'yicha xarajatlar, nafaqa ta'minoti dasturlari bo'yicha hisob va hisobot, bog'liq tomonlar haqida ma'lumotlarni yoritish, jamlama va alohida moliyaviy hisobotni tuzish, assotsiatsiyalangan korxonalariga investitsiyalar, qo'shma faoliyatda ishtirok etish, moliyaviy instrumentlar, bir aksiyaga to'g'ri keluvchi foyda, oraliq moliyaviy hisobot, sotishga mo'ljallangan uzoq muddatli aktivlar, aktivlarni qadrsizlanishi, baholangan majburiyatlar, shartli majburiyat va aktivlar, nomoddiy aktivlar, investitsiyaviy ko'chmas mulk kabilarni o'z ichiga oladi hamda shu asosida moliyaviy hisobotlarni tayyorlash zarurat aylanmoqda. Buxgalteriya hisobi xizmatining natijaviy ko'rsatkichi moliyaviy hisobotlar bo'lib, uning asosiy maqsadi va vazifalari investitsiyalar kiritish va kreditlar berish to'g'risida qarorlar qabul qilishda zarur, hal qiluvchi va foydali bo'lishi, undan foydalanuvchilarga pul mablag'larining kelgusidagi harakatini baholashga yordam berishi, mulkiy, moddiy, mehnat va moliyaviy resurslardagi o'zgarishlarni haqqoniy va ob'ektiv aks ettirilgan axborotni taqdim etishdan iborat. Xorijiy davlatlarda buxgalteriya hisobini tashkil etish, yuritish va hisobotni tuzish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan tamoyillari sezilarli darajada farq qiladi. Ushbu farqlar xo'jalik faoliyatini tashkil etish va mavjud mulkchilik shakllarining xilma-xilligi hamda hisob amaliyotiga tashqi (siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, jug'rofiy, texnologik va boshqa) omillarning ta'siri natijasida yuzaga keladi.

Moliyaviy hisobotning maqsadi korxonaning moliyaviy holati, faoliyati va moliyaviy holatidagi o'zgarishlar to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etishdan iborat bo'lib, u iqtisodiy qarorlar qabul qilishda keng foydalanuvchilarga, ayniqsa butun



dunyo bo‘ylab diversifikatsiya va investitsiya imkoniyatlarini qidirayotgan investorlar uchun foydalidir. Asosiy sifat ko‘rsatkichlari va tegishli buxgalteriya standartlarini qo‘llash, odatda, adolatli taqdimotni ta‘minlaydigan moliyaviy hisobotlarga olib keladi. Biroq, buxgalteriya hisobi standartlari bir mamlakatdan boshqasiga farq qiladi, bu esa mamlakatlar bo‘ylab moliyaviy hisobot sifatining farqlanishiga olib keladi va moliyaviy ma‘lumotlarning solishtirish va shaffofligini qiyinlashtiradi.

Axborotni kamaytiradigan buxgalteriya standartlarini uyg‘unlashtirish zarurati manfaatdor tomonlar va kompaniyalar o‘rtasidagi nosimmetriklik MHXSni ishlab chiqishni talab qildi. Shu nuqtayi nazardan, bugungi kunda kompaniyalarning xalqaro bozorlarga chiqishi, shuningdek, salohiyatli investorlarni jalb qilishda MHXSga muvofiq moliyaviy hisobot tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi va u hayotiy zaruratga aylanib bormoqda.

Xalqaro amaliyotda buxgalteriya hisobining tamoyillari qilib quyidagilar hisoblanadi:

1. Amal qiluvchi korxonalar (davomiylik) tamoyili
2. Doimiylik (qiyoslanuvchanlik) tamoyili
3. Ehtiyotkorlik (konservativizm) tamoyili
4. Muvofiqlik (hisoblash) tamoyili

TADQIQOT VA NATIJALAR

Ayrim davlatlarda hukumat milliy resurslarni boshqarishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Frantsiya va Shvetsiyada buxgalteriya hisobining rivoji bir muncha boshqa xususiyatga ega. Korxonalar makroiqtisodiy rejalashtirish doirasida hukumatning iqtisodiy siyosatiga amal qilishi shart. Bu davlatlarda hukumat nafaqat biznesning moliyaviy imkoniyatlarini nazorat qiladi, balki zarur hollarda investor yoki kreditor rovida ham ishtirok etadi. Pirovardida ta‘kidlash lozimki, buxgalteriya hisobi, avvalambor, davlat reja organlarining ehtiyojlariga yo‘naltirilgan, firma va kompaniyalar esa hisob va hisobotlar sohasidagi unifikatsiyalangan (yagonalashtirilgan) standartlarga amal qilishga majbur ekanligini e‘tirof etish lozim.

MHXSni tatbiq etish bo‘yicha Yevropa davlatlarining tajribasini o‘rganish va ushbu jarayondagi muammolar va istiqbollarni adolatli baholash O‘zbekistondagi



kompaniyalarning MHXSga muvofiq buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobot tuzish jarayoniga o‘tish davrida katta imkoniyat hisoblanadi.

O‘zbekistonda bunday o‘tish davri ancha yillardan beri davom etib kelayotganligini alohida aytib o‘tish kerak. Ammo, bu davrda jahon tajribasini o‘rganish va MHXSga muvofiq buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobot tuzishga o‘tishning muammolari va istiqbollari baholash juda sekinlik bilan amalga oshirilmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoevning 2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha harakatlar strategiyasida “Lizing va boshqa moliyaviy xizmatlarning hajmini ularning yangi turlarini joriy qilish va sifatini oshirish hisobiga kengaytirish” masalasining qo‘yilishi, shuningdek, mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma‘ruzalarida “Xalqaro standartlashtirish tashkilotning 21 ming standartdan atigi 13 foizi mamlakatimizda joriy etilgan”ligi xalqaro standartlar asosida buxgalteriya hisobi va auditni tashkil etish va uning ilmiy-nazariy hamda uslubiy asoslarini ishlab chiqish masalasini o‘ta dolzarb ekanligini belgilab beradi.

R.Abdurahmonovning ta’kidlashicha: “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bilan bir qatorda AQShning milliy standartlari asosida tuziladigan moliyaviy hisobotlar ham amal qiladi (US GAAP). Bu standartlar ma’lum ma’noda xalqaro standartlar sifatida qaralishi mumkin. Biroq, oxirgi to‘rt yillik kuzatuvlar AQSh birjalarida MHXS bo‘yicha hisobot tuzuvchi kompaniya va firmalar sonining ortganligini ko‘rsatmoqda. Bundan avvallari US GAAP bo‘yicha moliyaviy hisobot tayyorlagan MDH davlatlaridagi xo‘jalik sub’ektlari ham mustasno emas”.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillika erishgan yillaridan boshlab, barcha sohada yangi uyg‘onish davri boshlandi. Istiqbolli yuksalish yo‘li sifatida xalqari iqtisodiy integratsiyani rivojlantirish asosiy omillardan biri bo‘lib hizmat qildi. Buxgalteriya hisobi sohasida ham bosqichma-bosqich uchunchi renesans davriga yetib keldi.

1-qadam: O‘zbekiston Respublikasining 09.12.1992 yildagi 734-XII-son “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni (yangi tahriri) va O‘zbekiston



Respublikasining 30.08.1996-yildagi 279-I-son “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonuni (yangi tahriri) qabul qilindi.

2-qadam: 1993-yildan boshlab schyotlar rejasi 21-son Buxgalteriya hisobi milliy standartlari va barcha BHMSlar 2009-yilgacha shakillandi.

3-qadam: 13.04.2016-yildagi O‘RQ-404-son Qonuni bilan “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni (yangi tahriri) va 25.02.2021-yilda O‘RQ-677-son “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni (yangi tahriri) qayta ishlab chiqildi va tasdiqlandi.

4-qadam: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023-yildagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni, 2019-yil 19-sentyabrdagi PQ-3946-son “O‘zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2021-yil 4-avgustdagi PQ-5210-son “Auditorlarni sertifikatlashtirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarorlari qabul qilindi. Hususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi Farmonida iqtisodiyotimizni yanada rivojlantirishga qaratilgan islohatlarda iqtisodiy o‘shish orqali daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoridan o‘rin olish, aholi talablariga va xalqaro standartlarga to‘liq javob beradigan ta‘lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish kabi vazifalar keng o‘rtaga tashlandi.

Strategiyada belgilangan vazifalarga erishishda, aholi daromadlarini oshirish, iqtisodiy sub’ektlarni oshirish, ushbu sub’ektlarda aholi talablariga va xalqaro standartlarga to‘liq javob beradigan daromadlar hisobi xalqaro standartlar asosida yuritish, bugungi kunda dolzarb masalalardan biri bo‘lib hisoblanadi. Mazkur strategiya ijrosini ta‘minlash yuzasidan qabul qilingan qator farmon va qarorlar, shuningdek davlat dasturlarida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish ustuvor vazifalar hamda aniq chora-tadbirlar belgilangan.

Yuqorida keltirib o‘tilganidek O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4611-son qaroriga asosida Moliyaviy

hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish dastlabki huquqiy asos yaratildi. 2021-yil 1-yanvardan boshlab, aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, sug‘urta tashkilotlari va yirik soliq to‘lovchilar toifasiga kiritilgan yuridik shaxslar moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari asosida buxgalteriya hisobi yuritilishiga o‘tish belgilab berildi. Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-avgustdagi 507-son “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori ham mazkur tizimga o‘tishni jadallashtirishga asos bo‘ldi.

O‘zbekiston iqtisodiy o‘shish va taraqqiyotga intilayotgan davlat sifatida moliya sohasida buxgalteriya hisobi va hisoboti mexanizmlarini standartlashtirish va takomillashtirish jadal suratlarda o‘smoqda. So‘nggi yillarda mamlakatimizda moliyaviy hisob standartlarini xalqaro standartlarga yaqinlashtirish bo‘yicha faol ishlar olib borilmoqda. MHXS (moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari) ga o‘tishning bir qancha potensial afzalliklari mavjud;

- ✓ moliyaviy tahlilchilar va investorlar uchun moliyaviy hisobotlarning aniqligi, taqqoslanish, ma’lumotlarning oshkorligi, kam tahlil xarajatlari;

- ✓ aktivlarni baholashning bozor mexanizmlari – amalda aktivlar va majburiyatlarning dastlabki qiymati va uning joriy bozor qiymatidan foydalanish investor uchun ham tashkilotning o‘zi uchun ham samarali qarorlar qabul qilishga yordam beradi; moliyaviy instrumentlarni qo‘llash qulayligi – MHXS hujjatlari zamonaviy biznes yo‘nalishlari va operatsiyalarni aks ettirish usullarini yetarli darajada tez-tez qayta ko‘rib chiqilishi mamlakatda moliyaviy instrumentlardan foydalanish imkoniyatlarini oshiradi;

- ✓ aktivlar qadrsizlanishini o‘z vaqtida aks ettirish – amaldagi hisob standartlari aktivlar qadrsizlanishi riski bo‘yicha choralar ko‘rishni talab etmaydi. Natijada yirik kompaniyalarda aktivlar summasining oshirib ko‘rsatilish riskini yuzaga keltiradi.

MHXS standartlari bunday risklarning oldi olinishi uchun zaruriy talablarni qo‘yadi:

- ✓ shartli aktiv va baholangan majburiyatlar bo‘yicha aniq ko‘rsatmalar – foydalanuvchilar to‘g‘ri qaror qabul qilishlari uchun nafaqat hujjatlarga asoslangan operatsiyalar to‘g‘risidagi axborot, balki kelajakda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan hodisalar oqibatini joriy hisobotlarda aks ettirish ham muhim ahamiyat kasb etadi;

✓ konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlar tuzish – ko‘pchilik yirik kompaniyalar o‘zining tarkibiga kiruvchi korxonalarni hisobga olgan holda jamlama hisobotlarni tuzmoqda, lekin ularni tuzishda zamonaviy konsolidatsiyalash mexanizmlarini hisobga olmasligi, ushbu kompaniyalar guruhining haqiqiy ahvoli ko‘rinmay qolishiga sabab bo‘lmoqda. MHXS bo‘yicha konsolidatsiyalashgan hisobot moliyaviy hisobotning alohida maxsus tarkibiy qismi hisoblanadi va unga nisbatan maxsus talablar mavjud.

Yuqorida keltirilgan malumotlarga asoslanib, O‘zbekiston buxgalteriya hisobini xalqaro moliyaviy hisob standartlariga moslashtirish tartib qoidalarini ishlab chiqish hozirgi kunda O‘zbekistonda ayniqsa dolzarb ekanligini ta’kidlash mumkin.

XULOSA

Moliyaviy hisobning xalqaro standartlarini joriy etish O‘zbekiston moliya tizimini modernizatsiya qilishning muhim bosqichidir. Moliyaviy hisobotning taqqoslanuvchanligi, shaffofligi va ishonchliligini ta’minlash sarmoyalarni jalb etish, ishbilarmonlik muhitining raqobatbardoshligini oshirish va mamlakat moliyaviy barqarorligini mustahkamlashning asosiy elementiga aylanmoqda.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tishning dolzarbligi, ijobiy jihatlari va afzalliklarini hamda oqibatlarini tahlil qilish hamda nazariy-uslubiy jihatlarni tadqiq qilish natijasida quyidagi xulosalarni berish mumkin:

birinchi, korxonalarda moliyaviy hisobotlarni tayyorlashda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini qo‘llash, uning ahamiyati va zarurati o‘rganish, nazariy-uslubiy jihatlarni tadqiq qilish orqali ushbu moliyaviy hisobotlardan foydalanuvchilar, asosan, investorlarni jalb qilishda ustuvorlikka ega ekanligi hamda shaffof va to‘liq ochib berilgan ma’lumotlar to‘plamini taqdim etilishi va ishonchli manba bo‘lib xizmat qilishini alohida ta’kidlab aytish zarur;

ikkinchi, mamlakat miqyosida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini joriy etishda eng kerakli resurs bu kadrlar hisoblanadi. Shu sababdan, kadrlar tayyorlash tizimini tezkor ravishda ishlab chiqish va dasturiy ta’minotga o‘zgartirish kiritish uchun mavjud va qo‘shimcha resurlardan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir;

uchinchi, milliy buxgalteriya hisobini MHXSning prinsip va talablariga mos holda keltirish bo‘yicha islohotlarni davom ettirish jarayonida amaldagi me’yoriy

huquqiy hujjatlarga, buxgalteriya hisobining milliy standartlariga zaruriy o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish, xususan, nizomlar, yo‘riqnomalar va qoidalarni ham standartlarga aylantirishimiz kerak;

to‘rtinchidan, MHXSni qabul qilish va uni qo‘llashda hisob tizimidan tashqari, moliya, pul-kredit, soliq va mehnat qonunchiligini hamda kapital bozorini o‘zaro uyg‘unlikda ta‘minlash zarur.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4611 sonli “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” qarori, 24.02.2020-yil. www.lex.uz
2. Fredrick D.S. Choi & Gary K. Meek (2005) International Accounting, Pearson Prentice Hall, Upper Saddle River, pp.4-18.
3. J. Gordon, International financial reporting standarts – explained, 2022.
4. Karimov A.A., Ibragimov A.K., Rizayev N.K., Imamova N.M. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari, Darslik, - T.:2021, 332 b.
5. Irvine, H., & Lucas, N. The Globalization of Accounting Standards. Working paper, 3rd International Conference on Contemporary Business, 2006.
6. AICPA, IFRS FAQs, www.ifrs.com

Research Science and
Innovation House

